

MAKTAB O'QUVCHILARINI INNOVATION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TEST TIZIMINING TUTGAN O'RNI

Ajiniyoz nomidagi Nukus
davlat pedagogika institutining
"Testologiya va bilimlarni baholash" yo'nalishi
2- kurs magistranti Polvanova O'g'iljon Omonboy qizi

Annotatsiya: Maqola bugungi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar va tizimga yangilik sifatida qaralayotgan axborot texnologiyalari, test tizimining ta'lim oluvchilar faoliyatida tutgan o'rnini ochib berishga qaratilgan. Maqolada test tizimi joriy qilishdan ko'zlangan maqsad, jaroyon, natijalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Metodologiya, tahliliy-uslubiy yondashuv, sotsiolistik so'rov, eksperimental yondashuv, pedagogik yondashuv, g'oya generatsiyasi

Аннотация: Статья направлена на раскрытие роли проводимых сегодня в системе образования реформ, а также внедряемых новшеств, таких как информационные технологии и тестовая система, в деятельности обучающихся. В работе рассматриваются цели внедрения тестовой системы, сам процесс и достигнутые результаты.

Ключевые слова: методология; аналитико-методический подход; социологический опрос; экспериментальный подход; педагогический подход; генерация идей.

Abstract: The article focuses on revealing the role of ongoing reforms in the education system and the introduction of innovations such as information technologies and the testing system in students' learning activities. It discusses the objectives of implementing the testing system, the process itself, and the outcomes achieved.

Keywords: methodology; analytical-methodological approach; sociological survey; experimental approach; pedagogical approach; idea generation.

Kirish (Introduction) XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, iqtisodiyotning raqamlashtirilishi va fan-texnika yutuqlari ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, maktab o'quvchilarida innovatsion tafakkur va faoliyatni shakllantirish – ularni zamonaviy jamiyatga tayyorlashning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Innovatsion faoliyat bu — yangiliklarni yaratish, ularni amaliyotga joriy etish va ijtimoiy foydali natijalarga erishish jarayonidir. Ushbu faoliyat turi maktab bosqichidanoq shakllantirilishi zarur, chunki o'quvchilarda kichik yoshdan ijodkorlik, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish ko'nikmalari rivojlanishi ularning kelgusidagi kasbiy muvaffaqiyatlariga asos bo'ladi.

Mazkur maqolada maktab o'quvchilarining innovatsion faoliyatini loyihalashtirish tizimi, uning metodologik asoslari, amaliy yondashuvlari va kutilayotgan natijalari ilmiy jihatdan ko'rib chiqiladi.

Metodologiya (Methods) Ushbu ilmiy ishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Tahliliy-uslubiy yondashuv** – ilg'or tajribalarni o'rganish, mavjud adabiyotlar va me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish orqali nazariy asoslar ishlab chiqildi;
- **Sotsiologik so'rov** – maktab o'qituvchilari orasida o'tkazilgan intervyular va so'rovnomalar orqali ularning innovatsion faoliyatga munosabati aniqlashtirildi;
- **Eksperimental yondashuv** – Urganch shahri va Shovat tumanidagi 2 ta umumta'lim maktabida tajriba-sinov ishlari olib borildi;
- **Pedagogik kuzatuv** – o'quvchilar innovatsion loyihalarda ishtirok etish jarayoni muntazam kuzatilib, ularning faollik, ijodkorlik va tashabbuskorlik darajalari baholandi.

O'quvchilarning bilimini sinash va o'quvchilarda o'zlashtirishga doir muammoni hal qilish maqsadida ikkita ustun topshiriqlarini moslashtirish test topshiriqlari tayyorlandi. Test topshiriqlari uchun maxsus dastur ichlab chiqildi.

Dastur o'quvchilarning bugunga qadar o'rgangan ma'lumotlari yuzasidan tuzilgan moslashtirish test topshiriqlarini o'z ichiga oladi. Moslashtirish test topshiriqlarida o'quv yilining faqat bugungi kunga qadar o'ngangan mavzulari asosida yoritilgan ma'umotlar mavjud bo'lib, bu topshiriqlar o'quvchilar bilimini sinash, nazorat ishi topshiriqlarini bajarish orqali adolatli baholashga tayanadi. Moslashtirish test tizimining o'quvchi va o'qutuvchiga beradigan imkoniyatlari juda katta. Jumladan: O'qutuvchi bir vaqtning o'zida bitta testda bir qancha mavzuni qamrab olgan testni o'quvchiga taqdim eta oladi, shu jumladan o'quvchi ham bir vaqtning o'zida bir qancha mavzulardan tarkib topgan test topshiriqlarini bajarish orqali bir qancha mavzuni xayoliy takrorlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Moslashtirish test topshiriqlari jami 20 ta testni o'z ichiga qamrab oladi. Test topshiriqlari pedagogik kuzatuv natijalaridan kelib chiqqan holda sodda testlardan boshlanib asta- sekinlik bilan murakkablashib boradi. Test topshiriqlarini bajarish davomida o'quvchilar savollar va javoblar orasidagi moslikni aniqlashtirishi, shu jumladan testlarning savollarda yashiringan kalit so'zlar bilan bevosita bog'liq ekanligini anglab yetishlari test jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Test savollari raqamlar yordamida ketma-ketlikda beriladi. Javoblar esa savollardan farqli ravishda alifbo tartibidagi harflar bilan aralash holda aks etadi. Test topshiriqlarini bajaruvchilar esa savollardagi ketma-ketlikni buzmasdan alifbo tartibida berilgan javoblarni moslashtirib chiqishlari talab etiladi. Ushbu moslashtirish tartib-qoidalariga asoslangan test topshiriqlarini bajarish o'quvchilardagi intellekt, fikrlash qobiliyatini rivojlantiribgina qolmay balki o'quvchilarga xotirani qayta tiklash, mavzuni, o'rganilgan bilimlarni qayta nazorat qilish orqali mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Testlar bugungi zamon talabidan kelib chiqqan holda zamonaviy maxsus imkoniyatlarga ega bo'lgan komputer xonalarida olindi

Natija(Results)Tadqiqot davomida quyidagi muhim natijalarga erishildi:

1. **Maktab o'quvchilari innovatsion faoliyatga qiziqadi, ammo tizimli yondashuv yetarli emas.** So'rovnoma natijalariga ko'ra, 74%

o'quvchilarda test topshiriqlarini bajarish, zamonaviy kompyuterlardan foydalanib bilimni namoyish qilishlarida muammo bo'lmadi.

2. **Innovatsion faoliyatni yo'lga qo'yish uchun loyihalashtirish tizimi zarur.** Ya'ni o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash mobaynida faqat nazariy bilimni berish bilan cheklanib qolmasdan, o'rganilgan bilimlarni hayotga tatbiq qilishni ham birgalikda o'rgatib boorish lozim.

3. **Loyihalashtirish modeli ishlab chiqildi.** Ushbu model 5 bosqichdan iborat:

- **Muammoni aniqlash va tahlil qilish**

Tizimda yo'l qo'yilgan muammoni aniqlash, muammoga sabablarini tahlil qilish, muammoni yechishga qaratilgan g'oyalarni ko'rib chiqish.

- **G'oya generatsiyasi**

G'oyalar ichidan muammoni hal qilishda eng samarali go'yani aniqlash

- **Loyihani ishlab chiqish**

Tanlangan g'oya asosida loyiha ishlab chiqish

- **Sinov va baholash**

Sinov topshiriqlaridan kelib chiqqan holda baholash mezonlarini ishlab chiqish

- **Natijalarni taqdim etish va tahlil qilish**

Natijalash bilan o'quvchilarni tanishtirishish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tahlil qilish xulosa chiqarish.

4. **Maktablarda modelni joriy etish ijobiy samara berdi.** 64 % o'quvchi kollabaratsiyalashtirilgan tizimdan muaffaqiyatli o'tdi, yana 10% foiz o'quvchi past bo'lmagan o'rtacha natijani qayd etdi. 26% foiz o'quvchilarda kompyuterdan foydalanish va innovatsion faoliyatini o'rganilgan bilimlari bilan birgalikda qo'llashda muammo tu'g'ildi.

Muhokama (Discussion) Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirishda oddiy to'garaklar yoki darslar

yetarli emas. Buning uchun tizimli yondashuv zarur, ya'ni o'quvchilar o'z g'oyalarini aniqlab, loyihalashtirib, uni sinovdan o'tkazish, taqdim etish va tahlil qilish bosqichlarini o'z ichiga olgan kompleks dastur asosida harakat qilishlari kerak.

Yuqorida taklif etilgan 5 bosqichli loyiha modeli o'quvchilarni mustaqil ishlashga, tanqidiy fikrlashga, guruhda ishlashga o'rgatadi. Bu esa zamonaviy kasb va faoliyatlar uchun zarur bo'lgan "soft skills" (yumshoq ko'nikmalar) ni rivojlantiradi.

Muhokamada, shuningdek, o'qituvchilarning innovatsion salohiyati ham muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Chunki aynan pedagog o'quvchi uchun yo'lboshchi rolini bajaradi. O'qituvchilarning o'zlari ham innovatsion yondashuvlarni chuqur o'zlashtirmas ekan, o'quvchilarda bu boradagi motivatsiya zaif bo'lib qoladi. Moslashtirish test tizimini barcha fan doirasida keng yoyish lozim, toki o'quvchi bir vaqtning o'zida bir qancha ma'lumotni optimallashtirilgan ko'rinishda hayotda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lsin.

Xulosa va tavsiyalar (Conclusion) Maktab o'quvchilarining innovatsion faoliyatini samarali tashkil etish uchun quyidagilar muhim hisoblanadi:

- Innovatsion loyihalarni loyihalashtirish tizimini yaratish va joriy etish.
- O'quvchilarda tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ma'lumotlarni qayta tiklashga doir mashg'ulotlar tashkil etish.
- Pedagoglarning innovatsion kompetensiyalarini oshirish uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish va o'quvchilarda axborot texnologiyalariga oid savodxonlikni oshirishiga ko'maklashish, qo'llab quvvatlash.
- Innovatsion faoliyatda faol ishtirok etgan o'quvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish va kamchiliklarini tuzatishda yaqindan yordam berish.

Shuningdek, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari, mahalliy hokimiyat organlari va xususiy sektor hamkorligida o'quvchilarning innovatsion salohiyatini ochish uchun grantlar, tanlovlar va inkubatsion markazlar tashkil etish zarur. Shu jumladan bugungi rivojlanayotgan davlatga mos ilmiy va barkamol shaxni voyaga yetkazish yo'lida

xizmat ko'rsatgan ustoz va murabbiylarni munosib rag'batlatirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Azizxo'jayev A.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent: Fan, 2017.
2. To'raxo'jayev N. Innovatsion ta'lim asoslari. — Toshkent: O'zbekiston, 2019.
3. UNESCO. Future of Education Report, 2023.
4. Ministry of Public Education of Uzbekistan. 2022–2026 Education Development Strategy.
5. Vygotsky, L.S. Thought and Language. — MIT Press, 1986.
6. Dosi, G. (1988). Sources, Procedures, and Microeconomic Effects of Innovation. Journal of Economic Literature.